



Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti



TASHENEV
UNIVERSITY



“Alisher Navoiy va XXI asr”

10-ULUSLARARO KONFERANSI

Toshkent-Shimkent, 2025-yil 6-fevral

“Әлішер Науаи және XXI ғасыр”


10- ХАЛЫҚАРАЛЫҚ КОНФЕРЕНЦИЯ

Ташкент-Шымкент, 6 ақпан 2025 жыл

“Alisher Navo'i and the 21st century”

10th INTERNATIONAL CONFERENCE

Tashkent-Shymkent, February 6, 2025



**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti
Qozog'iston Respublikasi Jumabek
Tashenev nomli universitet**

«ALISHER NAVOIY VA XXI ASR»

**mavzusidagi 10-uluslararo konferansi
materiallari**

2025-yil 6-fevral

Toshkent – Chimkent – 2025

UO'K: 821.161.1=512.133

KBK: 83.3 (50')

A 51

Mas'ul muharrirlar:

Shuhrat SIROJIDDINOV,

filologiya fanlari doktori, akademik
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili
va adabiyoti universiteti rektori

Kanat BAYBOLOV,

Jumabek Axmetuli Tashenev nomli universitet rektori,
texnika fanlari doktori, professor

Tahrir hay'ati:

Boqijon To'xliyev (O'zbekiston), Nurboy Jabborov (O'zbekiston), Parida Bayneeva (Qozog'iston), Kemal Yavuz Ataman (Turkiya), Yashar Qosim (Ozarbayjon), Islam Jemeney (Qozog'iston), Farhod Rahimiy (Eron), Sholpan Arzimbetova (Qozog'iston), Karomat Mullaxo'jayeva (O'zbekiston), Janna Botabaeva (Qozog'iston), Baxtiyor Fayzullayev (Tojikiston), Dilnavoz Yusupova (O'zbekiston), Nozliya Normurodova (O'zbekiston), Shahlo Naraliyeva (Qozog'iston), Ilyos Ismoilov (O'zbekiston), Azizullah Aral (Afg'oniston), Orzigul Hamroyeva (O'zbekiston), Ozoda Tojiboyeva (O'zbekiston)

Ushbu to'plamda "Alisher Navoiy va XXI asr" mavzusidagi 10-uluslararo konferansi materiallari jamlangan. To'plamda Alisher Navoiy adabiy-ilmiiy merosining mumtoz adabiyotimizdagi o'rni va bugungi kun uchun ahamiyati, shuningdek, shoir ijodiga bog'liq holda matnshunoslik va tilshunoslik muammolariga doir ilmiy maqolalar o'rin olgan. Navoiyshunoslikning bugungi holati va istiqboli borasida muayyan tasavvur berishi uning ahamiyatini belgilaydigan omillardan biridir. Kitob filolog mutaxassislar, ilmiy tadqiqotchilar, magistrantlar va bakalavr talabalari hamda keng o'quvchilar ommasiga mo'ljallangan.

Mualliflar qarashi va asarlar nomlaridagi imlo tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin.

**Әлішер Науаи атындағы Ташкент
мемлекеттік өзбек тілі мен әдебиеті университеті**

**Қазақстан Республикасы Жұмабек
Тәшенев атындағы университет**

«ӘЛІШЕР НАУАИ ЖӘНЕ XXI ҒАСЫР»

**тақырыбындағы 10-халықаралық
конференция материалдары**

2025 жыл 6 ақпан

Ташкент – Шымкент – 2025

- ism;
- ot (hayvon),
- otmoq (fe'l).

Bundan tashqari, shu kabi bir necha omonim so'zlarga to'xtalib, ikki, uch, to'rt, besh va hatto olti o'rinda omonimlik hosil qila oladigan so'zlarni keltirib o'tadi. Masalan: ot, it, tush, yon, yoq – uch so'z doirasida, bor – to'rt so'z doirasida omonimlikni hosil qiladi. Bor – 1) mavjudlik; 2) borishga undash; 3) yuk; 4) meva. Beshta so'z doirasida omonimlik hosil qila oladigan "sog'in" so'zining ma'nolarini quyidagicha keltiradi: 1) qumsamoq; 2) sog'iladigan jonivorga nisbatan ishlatiladigan so'z, 3) ishq masti; 4) majnunvash; 5) bemor. Shuningdek, "tuz" so'zining olti ma'noda shakldoshlik hosil qila olishini keltirib o'tadi: 1) O'q yoki nayzadek to'g'ri narsalar; 2) tekis dasht; 3) rostgo'y kishi; 4) sozni chalmoqqa yoki asbobni sozlamogga buyruq berish; 5) ikki kishi o'rtasiga murosa solmoq; 6) bazm, majlis barpo qilish.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, "Muhokamat ul-lug'atayn" asarini tilshunos sifatida tahlil qiluvchilar uchun turkiy so'zlarning fonetikasi, leksikasi, muayyan semantik guruhlariga birlashishi, gap qurilishi xususidagi tilshunoslikning har bir sathiga doir qimmatli ma'lumotlar mavjuddir. Navoiy dahosini o'rganish, uning ilmiy merosidan bahra olish ko'plab ilm ahillarini bir nuqtaga jamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Izzatillayev P.I. "Muhokamat ul-lug'atayn" Eron navoiyshunoslari talqinida. Oltin bitiglar 1. – T., 2024. – 60-b.
2. Polivanov Ye.D. Russkaya grammatika v sopostavlenii s uzbekskim yazykom. – Tashkent, 1933
3. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2021. – B. 264
4. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.

ALISHER NAVOIY HAYOTI VA IJODINING "ЛИТЕРАТУРА" DARSLIKLARIDA AKS ETISHI

Ishonxanova Iroda Abduvaxitovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), ToshDO'TAU

irodaishonxanova@gmail.com

10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/DKI4659

Annotatsiya. Alisher Navoiy buyuk shoir, mutafakkir, davlat arbobi sifatida butun dunyoga mashhur shaxsdir. Uning hayot yo'li hamda adabiy merosini o'rganish masalasi hamma zamonlarda ham eng dolzarb mavzulardan biri bo'lib kelgan. Shu jumladan, yurtimizdagi ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablarda ham Alisher Navoiy shaxsiyatini o'rganishga alohida e'tibor beriladi. Ushbu maqolada ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining adabiyot darsliklari ko'rib chiqilgan. Bu darsliklardagi Alisher Navoiyga taalluqli bo'lgan mavzular borasida fikr-mulohazalar bildirilgan. Shoir ijodidan keltirilgan namunalarning janr, mavzu ko'lamini hamda o'quvchilar

o'rganishidagi samaradorlik masalalariga e'tibor berilgan. Shu bilan birga, Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'qitish yuzasidan shaxsiy tavsiyalar ham berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: *darslik, o'quv mashg'uloti, ruboiy, g'azal, hikmatli so'z, doston, fard.*

REFLECTION OF ALISHER NAVAI'S LIFE AND WORK IN "LITERATURE" TEXTBOOKS

Abstract. *This article explores the global recognition of Alisher Navoi as a renowned poet, philosopher, and statesman, and addresses the enduring significance of studying his life and literary legacy. The article focuses on the inclusion of Navoi's personality and works in educational curricula, specifically in schools where instruction is provided in languages other than Uzbek, with a particular emphasis on Russian-language secondary school textbooks. It examines the content related to Alisher Navoi in these textbooks, assessing the treatment of his works in terms of genre, thematic scope, and their effectiveness in enhancing students' understanding of the poet's contributions. Additionally, the article offers recommendations for improving the teaching of Alisher Navoi's life and oeuvre to foster a deeper appreciation and comprehension of his literary and philosophical impact.*

Keywords: *textbook, training, rubai, ghazal, wise word, epic, fard.*

Alisher Navoiy shaxsiyati nafaqat Sharq she'riy olami, balki jahon madaniyati va adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan ijodkordir. Uning asarlari dunyoning ko'plab tillariga tarjima qilinishi bilan birga, turli davlat olimlari tomonidan Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga doir ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Bunday izlanishlar bugungi kunda ham qizg'in davom etmoqda. Shuningdek, dunyoning ko'plab mamlakatlarida ta'lim tizimining turli bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodiy faoliyatiga oid manbalar o'rganiladi. Ushbu mavzularni o'rganish uchun ma'lum soatlar ajratilgan. Shu jumladan, O'zbekistondagi ta'lim rus tilida olib boriladigan umumiy o'rta ta'lim maktablarining "Литература" darsliklarida ham g'azal mulking sultoniga tegishli ma'lumotlar aks etgan.

Keyingi yillarda jamiyat hayotida katta o'zgarishlar yuz bermoqda: yangicha texnologiyalar ko'plab sohalarning isloh qilinishiga zamin bo'lib xizmat qilmoqda. Bunday islohotlar, o'z navbatida, ta'lim tizimida ham yangilanishlarni boshlab bermoqda. Turli yillarda nashr etilgan darsliklarni ko'zdan kechirganimizda, oxirgi yillardagi nusxalari avvalgilaridan ancha farq qilishini kuzatamiz. Ayniqsa, adabiyot darsliklarida sezilarli o'zgarishlar bo'ldi. Badiiy adabiyotning ma'naviyatga, tafakkurga, madaniyatga, nutq boyligiga qanchalik samarali ta'sir ko'rsatishi umumiy o'rta ta'lim maktabi darsliklarida aks ettirildi. Bu holat adabiyot o'quv mashg'ulotlarining qiziqarli hamda mazmunli o'tishida juda muhim ahamiyatga ega.

Biz o'z mavzumiz doirasida, ta'lim rus tilida olib boriladigan maktablarning "Adabiyot" ("Литература") darsliklarini ko'rib chiqdik. Rusiy zabon o'quvchilarga Alisher Navoiy haqida ma'lumot berish 6-sinf darsligidan boshlanadi. Darslikda Alisher Navoiy shoir, musiqachi, rassom va davlat arbobi sifatida tanishtiriladi. Uning o'ziga xos xususiyati sifatida o'zbek she'riyati quyoshi hamda o'zbek adabiy tilining asoschisi ekanligi aytib o'tiladi. Shu o'rinda darslikda "zullisonayn" so'zining qo'llanishi hamda

izohi berilishi diqqatga sazovordir. Chunki bu soʻz umumiy oʻrta taʼlim tizimida juda kam ishlatiladi va koʻp oʻquvchilar maʼnosi haqida maʼlumotga ega emas. Darslikda Alisher Navoiyning sevimli janrlaridan biri ruboiy boʻlganligi aytib oʻtilgan hamda ruboiylardan namunalar keltirilgan.

Здесь розы нет, а мне о ней твердят!

Пройти б у сада – вдоль его оград –

Пусть прелесть розы очи не узрят,

Зато вдохну чудесный аромат! [Камилова, 2022: 102]

(Gul zikrin eshiturmen-u, yoʻq guldin asar,

Bu bogʻ eshigidin istaram oncha guzar.

Kim, topmasa gul jamolidin bahra nazar,

Bore isidin yetsa dimogʻimgʻa xabar.)

Кто службой шаху добывает хлеб,

Тот может быть и хром, и глух, и слеп.

Но тайну скрыть и быть немым, что склеп, -

Труднейшая из всех земных судеб. [Камилова, 2022: 102]

(Kim istasa saltanat, saxodur anga shart,

Har vaʼdaki aylasa vafodur anga shart.

Kim faqr talab qilsa, fanodur anga shart,

Olligʻa nekim kelsa, rizodur anga shart.)

Ruboiylar matnidan soʻng topshiriqlar berilgan:

1. Tajriba oʻtkazing: koʻzingizni yuming va atirgulni tasavvur qiling – u qanday rangda boʻlishi mumkin? Qoʻl bilan ushlashingizni tasavvur qilib koʻring. Uning hidini his qiling.

2. Ruboiy satrlarni tahlil qilib, daftaringizga jadval chizing. Shoir gʻoyasini koʻrsating, soʻngra unga qoʻshilasizmi yoki yoʻqmi, fikringizni asoslab bering:

Alisher Navoiy ruboiylaridan bayt	Muallifning gʻoyasi	+/-	Fikringizni asoslang
Kim istasa saltanat, saxodur anga shart, Har vaʼdaki, aylasa vafodur anga shart.			
Gul zikrin eshiturmen-u, yoʻq guldin asar, Bu bogʻ eshigidin istaram oncha guzar.			

Agar birinchi topshiriq atirgul haqidagi birinchi ruboiyga tegishli boʻlsa, ikkinchi topshiriq barcha ruboiylarga tegishli.

Yana shu oʻrinda “Burime” oʻyini ham beriladi. Bunda bir-biriga qofiyadosh soʻzlar beriladi. Oʻquvchilar ular yordamida ikki misra sheʼr toʻqishlari kerak boʻladi. Bu oʻquvchilardagi ijodkorlik hamda hozirjavoblikni oshiradi. Bunday topshiriqli oʻyin Alshir Navoiy ruboiylaridan soʻng berilishi ham ayni muddao, nazarimizda.

Rusiyzabon oʻquvchilarga Alisher Navoiy haqida maʼlumot berish 7-sinf darsligida davom etadi. «Алишер Навои. Афоризмы» mavzusida aforizmlar haqida nazariy maʼlumotlar berilgan, mashhur kishilarning mutolaa va tafakkur haqidagi

hikmatli soʻzlaridan namunalar keltirilgan. Soʻng Alisher Navoiyning hikmatli soʻzlari berilgan. Masalan:

Язык является духовной сокровищницей замком, а слово – к этому замку ключом.

(Koʻngil xazinasining qulfi — til; u xazinaning kalitini — soʻz bil.)

Посеешь горечь – горек плод,

От сладких зёрен – сладкое взойдет.

(Kishi xanzal eksa, achchigʻ bar topar,

Va gar nayshakar eksa, shakkar topar.)

Твори добро и не болтай о том,

Хороших дел не порти хвастовством.

(Qil yaxshilig-u demakni doxil qilma,

Minnat bila yaxshilikni botil qilma.)

Терпенье одолеет все дела,

А спешка лишь к беде всегда вела.

(Sabr bila koʻp bogʻliq ish ochilur,

Ishda oshiqqan koʻp toyilur.) [Каминская, 2022: 7]

Hikmatli soʻzlardan soʻng shunday amaliy topshiriqlar berilgan:

1. Alisher Navoiyning oʻzingizga yoqqan aforizmini tanlang va sxema boʻyicha tahlil qiling:

Muallif ni taʼkidlaydi / rad etadi / isbotlaydi.

Muallif quyidagi xususiyatlarga eʼtibor qaratadi:

Muallif vani qiyoslaydi.

Muallifning maʼnosini ifodalaydi.

2. Alisher Navoiyning koʻrsatilgan aforizmlaridan oʻz hayotingizda sodir boʻlgan voqea bilan bogʻliq uchtasini tanlang. Ular haqida soʻzlab bering.

Topshiriqlar oʻquvchilarning mustaqil fikrlashi hamda oʻz mulohazalarini erkin bayon eta olishiga asoslangan. Bunda bola hikmatli soʻzlar mazmunini chuqurroq tushunishga harakat qiladi. Oʻz feʼl-atvorida qanday xususiyatlarni jamlashi kerakligi haqida fikr yuritadi. Oʻz hayotidagi voqea bilan qiyoslash ham juda qiziqarli topshiriq. Oʻquvchi chiqargan xulosasi orqali Alisher Navoiyning naqadar bilimdon inson ekaniga amin boʻladi. Shu bilan birga, necha asr oldin aytilgan fikrning bugungi kunda ham dolzarbligi sababli, ulugʻ shoirga boʻlgan hurmati ortadi.

Yana shu darslikda Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidan parcha berilgan:

Я славлю жемчуг слова! Ведь оно

Жемчужницей сердца рождено.

Четыре перла мирозданья – в нём,

Всех звезд семи небес блистанье – в нём...

Ведь слово – дух, что в звуке воплощён,

Тот словом жив, кто духом облачён...

С булатным ты язык сравнил клинком,

*С алмазным слово я сравню сверлом.
Речь – лепесток тюльпана в цветнике,
Слова же – капли рос на лепестке.
Ведь словом исторгается душа,
Но словом очищается душа [Каминская, 2022: 108].*

(So'z guharig'a erur oncha sharaf,
Kim bo'la olmas anga gavhar sadaf.
To'rt sadaf gavharining durji ul,
Yeti falak axtarining burji ul.
Jon o'lub ul, run aning qolibi,
Kim tanida ruh, aning tolibi.
Gar xud erur xanjari po'lod til,
Suftidog'i injulari so'zni bil.
Til bu chamanning varaqi lolasi,
So'z duraridin bo'lubon jolasi.
So'zdin o'lukning tanida ruhi pok,
Ruh dog'i tan aro so'zdin halok.)

Darslikda fard haqida nazariy ma'lumot berilgan va Alisher Navoiy fardi namuna sifatida keltirilgan.

*Друг обвинит – молчи; он хочет, чтоб в зеркало упал твой взгляд,
Коль мутно в зеркале, не думай, что в этом друг твой виноват.*
[Каминская, 2022: 108]

Ushbu fard shoirning

Kishi aybing desa, dam urmag'ilkim, ul erur ko'zgu,
Chu ko'zgu tiyra bo'ldi, o'zga aybing zohir aylarmu?

fardi tarjimasidir. Mazmuni: Aybingni aytgan kishini yoqtirmaslik hammaga xos. Lekin bu bilan o'ziga zarar qilayotganini hazrati Navoiyning ushbu fardi kishiga juda tushunarli va ta'sirli qilib yetkazib beradi. Chindan ham dam urilsa, ya'ni nafas tegsa, ko'zgu xiralashadi. Shu kabi to'g'ri gapga chidamay, e'tiroz bildirish ham keyingi safar aybingning aytilmasligiga olib keladi. Ya'ni ma'naviy ko'zguni xiralashtiradi. Fardda payg'ambarimizning "Musulmon musulmonga ko'zgu", degan hadisleri shoir tomonidan o'ziga xos tarzda badiiy shaklga solingan.

Lekin biz rus tilidagi (Vsevolod Rojdestvenskiy tarjimasi) variantini ko'rib chiqsak, mazmuni biroz farq qiladi: Do'sting ayblasa – sukut saqla, u nigohing ko'zguga tushishini xohlaydi. Agar ko'zgu xiralashsa, bunda do'stingni aybdor deb o'ylama.

Mantiqan olib qaralganda, tarjima mazmuni ham farddagi g'oya ifodasiga xizmat qiladi. Chunki ko'zgu xira bo'lsa, ya'ni aybini ko'rsatmasa, do'st aybdor bo'lmaydi. Aybini eshitgisi kelmayotgan kishi aybdor, chunki u ko'zguni o'z nafasi orqali xiralashtiradi.

Darslikda keltirilgan bu fard 7-sinf o'quvchilari yoshi hamda fikrlash doirasiga mos deb hisoblaymiz.

Shuningdek, Oybekning “Navoiy” romanidan parchani ham ushbu darslikda o‘qish mumkin. Ijodga berilib ketgan Navoiy o‘zining birinchi qor munosabati bilan ziyofatga taklif etilganini ham unutadi. Natijada, turkiy tildagi go‘zal ijod namunalari yaratiladi. Matndan so‘ng savollar berilgan. Bunda matnda keltirilgan Navoiyning “Час размышления лучше, чем год благочестия” (Bir soat fikr yuritish bir yillik taqvodan afzaldir) hikmatli so‘ziga alohida e‘tibor qaratilgan. Bundan tashqari “Hayrat ul-abror” dostonidan keltirilgan parchadan “so‘z” tushunchasining gullagan bog‘ bilan qiyoslash o‘rinlarini topish vazifasi berilgan. Bu jarayon o‘quvchining so‘z qadrini his qilishiga yordam beradi.

Ta‘lim rus tilida olib boriladigan umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 8-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiy hayot yo‘liga keng o‘rin berilgan. Mashhur shoirimiz Hamid Olimjonning Alisher Navoiy haqidagi she‘ri epigraf sifatida qo‘llanib, so‘z mulkining sultoni hayot yo‘li haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Shoirning bolalik, o‘smirlik, ta‘lim yillari haqida gapirilar ekan, she‘r yozishni mashq qila boshlagani aytib o‘tilgan. O‘z taxalluslarining mazmuni orqali tilga bo‘lgan munosabatini bildirgani ta‘kidlangan. (Поэтические произведения, написанные на узбекском языке, Алишер подписывает «Навои» (мелодичный), а под стихами, созданные на фарси, ставит подпись «Фани» (бренный, смертный). [Варфоломеев, 2019: 127]. В этих псевдонимах четко проглядывается отношение поэта к данным языкам.) Keyinchalik saroyda muhrdor, vazir lavozimlarida ishlagani, madrasa, hammom, masjid, kasalxona kabi binolar qurdirgani, ijod ahliga homiylik qilgani sanab o‘tilgan. Shuningdek, turkiy tilning rivojlanishi va taraqqiyotida Alisher Navoiyning xizmati beqiyos ekanligi alohida ta‘kidlab o‘tilgan. Bundan tashqari, alisher Navoiyning ko‘plab asarlari haqida ma‘lumot berilgan. Jumladan, “Muhokamat ul-lug‘atayn”, “Xazoyin ul-maoniy”, “Xamsa”, “Mahbub ul-qulub” asarlari tarkibi hamda mazmuni aytib o‘tilgan. Shuningdek, Alisher Navoiy eski o‘zbek adabiy tilining rivojini o‘z hayot maqsadi qilib olganligi va g‘azallari orqali turkiy tilni yuksak darajaga olib chiqqani ta‘kidlanadi. “Xamsa” dostonlarini ham birinchi bo‘lib turkiy tilda yozganligi o‘z iqtidorini to‘la namoyish qilganligini anglatadi.

8-sinf darsligiga Alisher Navoiyning “Farhod va Shirin” dostonidan parchalar kiritilgan:

Не два понадобилось слова ей, —

Пять слов служило тут основой ей:

«Фирак» — разлука. «Ах» — стенаний звук,

«Рашк» ревность, корень самых горьких мук,

«Хаджр» — расставаньё. «Дард» печали яд.

Сложи пять первых букв, прочтешь: «Фархад». [Варфоломеев, 2019: 132]

(Anga farzona Farhod ism qo‘ydi,

Hurufi ma‘xazin besh qism qo‘ydi.

Firoqu rashku hajru oh ila dard,

Birar harf ibtidodin aylabon fard.)

Agar Farhod ismidagi harflarning ketma-ketligini kuzatsak, rus tilidagi tarjimada biroz o'zgarishni ko'ramiz. Arab tilidagi "alif" harfining "o" va "a" unlilarini ifodalashi haqidagi ma'lumotni qabul qilish rus kitobxonlariga qiyinchilik tug'dirmasligi uchun shu ko'rinish ma'qul ko'rilgan deb hisoblaymiz. Ushbu tarjima 1968-yilda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi tomonidan chop etilgan Alisher Navoiyning rus tilidagi 10 tomlik asarlarining 4-tomidan o'rin olgan.

Darslikda berilgan boblarda Farhodning bolaligi, uning zehni o'tkir va bilimli bo'lib yetishgani, xotirasi kuchliligi, "Qur'on"ni juda qisqa muddatda yod olgani haqida hikoya qilinadi. Bu holatlar 8-sinf o'quvchilari uchun namuna vazifasini o'taydi, ular Farhoddan ibrat oladilar.

Ayniqsa, Farhodning iqtidorlari sanab o'tilgan parchalarga alohida e'tibor qaratish lozim deb hisoblaymiz. Masalan:

Фархад особенным ребенком рос:

Как муравей питаясь, львенком рос.

В год – у него тверда была нога,

В три – не слова низал, а жемчуга,

И речь его не речью ты зови, -

Зови ее поэмою любви.

В три года он, как в десять, возмужал,

Все взоры этим чудом поражал...[Варфоломеев, 2019: 132]

(Icharda mo'rdin o'ksuk g'izosi,

Topib qut onchakim, arslon bolosi.

Bu yanglig' chun bir o'ldi yoshi oning,

Sharaf durrig'a yetti boshi oning.

Qadam urdiyu tarki mahd qildi,

Qo'yub emgak yururga jahd qildi.

Chu uch yoshig'a chekti davri aflok,

Takallum qildi andoqkim duri pok.

Ajabdur uch yoshida ko'zga atfol,

Nechukkim o'n yoshida o'zga atfol.)

Yuqoridagi misralarda Farhodning boshqalarga o'xshamaydigan xususiyatlari haqida gapiriladi. Dostonda bunday o'rinlar juda ko'p. Xususan, Farhodning tez savod chiqargani, "Qur'on"ni yod olgani haqidagi misralar ustida ishlansa, o'quvchilarga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Тот день был первым днем его побед, -

Он в первый день освоил весь абджед.

Умом пытлив и прилежаньем рьян,

Он через год знал наизусть Коран.

Знал все построчно, постранично он,

Ни слова не читал вторично он.

Но, раз прочтя, все закрепит в мозгу,

Как бы резцом наносит на доску...[Варфоломеев, 2019: 133]

(Ham avval kunda berdi sarvi gulxad

Atog'a hadyai ta'limi abjad

Uchunchi oy ravon bo'ldi savodi,

Burung'i yilda Qur'on bo'ldi yodi.

Agar bir qatla ko'rdi har sabaqni,

Yana ochmoq yo'q erdi ul varaqni.

Ne so'znikim o'qub ko'ngliga yozib,

Dema ko'ngliki, jon lavhiga qozib.)

Parchalardan so'ng quyidagi savol va topshiriqlar berilgan:

1. Farhod nega taxtni qabul qilmadi, deb o'ylaysiz? Uning rad etish sabablarini tushuntiring.

2. Farhod saroydan yashirincha chiqib ketadi va tog'ni teshib, kanal qurilishini davom ettirishga qaror qiladi. Nima uchun?

3. She'rdan Farhodning oliyjanob siymosini ochib beruvchi parchani yodlang; uni sinfda o'qib bering.

4. "Shirin uni go'zalligi bilan maftun etdi" mavzusida uy inshosi yozing.

Yuqoridagi savol va topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikrlari hamda asar yuzasidan taassurotlarini bilishga xizmat qiladi. Uy inshosi nutq boyligi hamda ijodkorlikni tarbiyalaydi.

Shu o'rinda bir mulohazani aytib o'tishni joiz deb bilamiz. Darslikda berilgan parchalar Farhod va Shirinning o'limi bilan yakunlanadi:

В парче, в шелках желанный гость лежал,

Как будто сон сладчайший он вкушал...

Залюбовавшись гостя чудным сном,

Столь сладостным и не пробудным сном,

Ширин глядела – и хотелось ей

Таким же сном забыться поскорей,

И с милым другом ложе разделить,

И жажду смерти так же утолить. [Варфоломеев, 2019: 148]

(Bu yanglig' uyqu ko'rgach sarvi choloq,

Anga hamxobaliq qildi havasnok.

Qo'yubon ro'y-barro', do'sh-bardo'sh,

Bo'lub o'z bedili birla hamog'ush.

Ko'nguldin shu'laliq ohe chiqordi,

Ko'zi hamxobadek uyqug'a bordi.)

Bu darslikda berilgan parchaning oxirgi misralari. Unda Shirinning jonsiz Farhodni ko'rganda o'zi ham o'lishni istagani aks etgan. Sevgi yo'lida o'zlarini halok qilganlar haqidagi hikoyat maktab o'quvchilariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu sababli Farhod va Shirinning o'limi bilan bog'liq parchalarni darslikka kiritmaslik ma'qul bo'lardi.

Rus sinflarining 9-sinf adabiyot darsligida Alisher Navoiy shaxsiyatiga alohida to'xtab o'tilmagan bo'lsa ham, g'azal haqida nazariy ma'lumot keltirilganida, shoirning g'azali misol tariqasida keltirilgan:

*Сиянием твоего лица, его огнем обожжены, -
Черны и брови, и глаза твои, и родинки твои черны.
Из раны сердца моего ты вылетел, мой скорбный вздох,
И опалил моей тоской сердца людские всей страны.
О сердце, как ошиблось ты, запутавшись в ее кудрях!
Тебе отныне лишь обман, лишь тьма и горе суждены...
Палас печали надо мной ты распростер, о небосвод!
Но твой атлас не нужен мне, хоть краскам дивным нет цены.
Бедя и скорбь! Небытию скорей предайте Навои:
Он от печали изнемог, он жаждет вечной тишины.* [Петрухина, 2019: 121]

G'azaldagi quyosh, oy, gul, qimmatbaho tosh kabi timsollarga sevikli yorning xususiyatlarini qiyoslagan shoir betakror obraz yaratganining guvohi bo'lamiz. Birinchi baytning mazmuni shunday: Yuzing shu'lasini shunchalik o'tkirki, uning olovidan kuygani uchun yorning qoshi, ko'zi va xoli qop-qoradir. Qizning yuzi nurli hamda qosh-ko'zlari qoraligiga shoir va oshiq shunday izoh beryapti. "Husni ta'lil"ga keltirilgan bu chiroyli namuna o'quvchilarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi deb o'ylaymiz.

Yuqorida sanab o'tilgan darsliklarda Alisher Navoiyning hikmatli so'zlari, ruboiylari, bir g'azali, bir fardi, "Hayrat ul-abror" hamda "Farhod va Shirin" dostonlaridan olingan parchalar mavjudligini ko'rib chiqdik. Nazarimizda, biz Navoiyni ko'proq g'azal janri ustasi deb bilganimiz sababli rus sinflarida ham shoir g'azallariga alohida soat ajratilishini maqsadga muvofiq deb bilamiz. Rusiyzabon o'quvchilar ham Alisher Navoiyning dunyoga mashhur g'azallaridan namunalar yod olishlari zarur. Chunki har yili respublika miqyosida "G'azalxon yoshligim", "Navoiy vorislari" kabi ko'rik-tanlovlar o'tkaziladi.

Shu o'rinda yana bir mulohazani aytib o'tish zarur deb hisoblaymiz. Alisher Navoiy haqida xalq orasida ma'lum va mashhur bo'lgan rivoyatlar "El desa Navoiyni" nomi bilan chop etilgan. Odatda, adabiyot fani o'qituvchilari ushbu to'plamdan unumli foydalanadilar. Rusiyzabon o'quvchilarni ham bunday rivoyatlardan bahramand etish foydadan xoli bo'lmaydi, nazarimizda.

So'z mulkining sultoni hazrat Alisher Navoiyning ijodi o'zining jozibasi bilan butun dunyoni o'ziga jalb qilgan. Uning asarlari dunyoning turli tomonlarida sevib o'qiladi hamda tadqiq qilinadi. Shu jumladan, yurtimizdagi ta'lim rus tilida olib boriladigan ta'lim muassasalarida ham bunga alohida e'tibor qaratilgan. Yuqorida rus sinflarining adabiyot fani darsliklarini ko'rib chiqdik. Shu narsaga amin bo'ldikki, rusiyzabon sinflarda ham so'z dahosi hayoti va ijodiga ma'lum soatlar ajratilgan. Alisher Navoiyning turli janrdagi asarlaridan namunalar keltirilgan. Ularni tushunish, tahlil qilish hamda fikr-mulohazalar bildirish uchun turli savol va topshiriqlar ham berilgan. Agar fan o'qituvchisi ulardan unumli foydalansa hamda o'zi ham boshqa

qo'shimcha ma'lumotlarni o'quvchilar diqqatiga havola qilsa, o'quv mashg'ulotlari samarali va qiziqarli bo'ladi. Yana bir diqqatga sazovor joyi shundaki, ba'zi darsliklarda Alisher Navoiy o'quvchilarga musiqachi, rassom sifatida tanishtirilgan o'rinlari bor. Bu ma'lumotlar Alisher Navoiy shaxsini yuksaltirish bilan birga, o'quvchilarning unga bo'lgan qiziqishini orttiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Navoiy Alisher. To'la asarlar to'plami. 10 jildlik. 6-jild. Hayrat ul-abror. Farhod va Shirin. – Toshkent: G'afur G'ulom nashriyoti, 2013. – 812-b.
2. Варфоломеев И.П., Миркурбанов Н.М. Литература: учебник для 8-класса в двух частях для школ общ. средн. образов. с рус. яз. обуч., II часть. – Ташкент: Узбекистан, 2019. – 240 с.
3. Камилова С.Э., Ротанов А.Н. Литература: учебник для 6-класса. – Ташкент: Республиканский центр образования, 2022. – 224 с.
4. Каминская Е.М., Балтаева А.М. Литература: учебник для 7-класса. – Ташкент: Республиканский центр образования, 2022. – 224 с.
5. Алишер Навоий. Махбуб ул-қулуб. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1983. – 112 б.
6. Алишер Навоий. Хазойин ул-маоний. – Тошкент: Тамаддун, 2011. – 732 б.
7. Алишер Навоий. Ҳайратул-аброр. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 1974. – 145 б.
8. Алишер Навоий. Ҳикматлар. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – 256 б.
9. Петрухина Н.М., Гарипова Г.Т. Литература: учебник для 9-класса в двух частях для школ общ. средн. образов. С рус.яз.обуч., II часть. – Ташкент: Узбекистан, 2019. – 240 с.
10. <http://slovo.nx.uz/alisher-navoi>
11. <https://tafakkur.net/kishi-aybing-desa/alisher-navoiy.uz>

HAZRAT NAVOIY IJODIDA NUTQ MADANIYATI

Shahlo Naraliyeva,

*Qozog'iston Respublikasi, J.Tashenev nomli universitet xalqaro departament
direktori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Farrux Abdaliyev,

*Qozog'iston Respublikasi, Jumabek Tashenev nomli universitet,
filologiya fakulteti o'qituvchisi
10.52773/tsuull.conf.navoiy.2025/FVLD2003*

Annotatsiya. Mazkur maqolada buyuk mutafakkir Hazrat Amir Alisher Navoiyning notiqlik san'ati, til odobi, nutq madaniyati xususidagi fikrlari tadqiq qilinadi.

Kalit so'zlar: So'z qudrati, tafakkur, qadriyat, elparvarlik, milliy yuksalish, she'riy san'at.

SPEECH CULTURE IN THE WORK OF HAZRAT NAVAI

Abstract. This article analyzes the views of the renowned thinker Hazrat Amir Alisher Navoi on the art of oratory, language etiquette, and speech culture. It explores his philosophical perspectives on effective communication, the ethical use of language, and the cultivation of eloquent expression, highlighting their relevance to both his literary works and broader cultural values.

MUNDARIJA CONTENTS	
Shuhrat SIROJIDDINOV. Turkiy dunyo hamkorligining mustahkam asosi Туркі әлем ынтымақтастығының мықты негізі	7
Қанат БАЙБОЛОВ. Екі халық арасындағы бауырлық пен достық рәмізі Ikki xalq qardoshligi va do'stligi simvoli	11
I SHO'BA. ALISHER NAVOIY ADABIY MEROSINING JAHON TAMADDUNIDA TUTGAN O'RNI SECTION I. THE PLACE OF ALISHER NAVAII'S LITERARY HERITAGE IN WORLD CIVILIZATION	
Boqijon TO'XLIYEV. Nasimiy va Navoiy nazmi – badiiy tafakkurning yangi bazmi	15
Islam JEMENEY. Әлішер Навои	23
Yashar QOSIM. Dohiy Alisher Navoiyning ulug' izdoshi (Muhammad Fuzuliy sheiriyatida poetik in'ikos tarzining o'ziga xosligi)	35
Qodirjon ERGASHEV. Renessans adabiyotida etologik janr taraqqiyoti	42
Əlimuxtar MUXTAROV. Nizami Gencevi ve Alişir Navai'nin tür ruhu eserlerinin ve araştırmacılarının gözü ile	47
Roviyajon ABDULLAYEVA. Alisher Navoiy fenomeni yoxud Navoiy ijodining olamshumul ahamiyati	52
Насриддин НАЗАРОВ. Гуманизм и креативность в творчестве Наваи как фактор обеспечения связей между народами Евразии	60
Burobiya RAJABOVA. O'zbek navoiyshunoslari Jomiy haqida	67
Karomat MULLAXO'JAYEVA. Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy g'azallarida Yusuf (a. s.) siymosining badiiy talqinlari	77
Tozagul MATYOQUBOVA. Sharq adabiyotining yetuk tadqiqotchisi	82
Nosir JO'RABOYEV. Ikki turkman hukmdori ijodi va Alisher Navoiy	87
Молдасанов Е.М., АБДУВАЛИТОВ Н.Б. Әлем әдебиетінің асқар шыңы (Әлішер Науаидың 584 жылдығына орай)	95
Hulkar HAMROYEVA. Alisher Navoiy ijodida san'at talqini	99
Злиха ЖАНТАСОВА. Шығыс әдебиетінің қазақ фольклорындағы көрінісі	103
Sherxon QORAYEV. Alisher Navoiy Badaxshon shohi va shoir Sulton Muhammad La'liy ijodi tadqiqotchisi (Navoiy va uning zamondoshlari tazkiralari ma'lumotlari asosida)	109
Ahmad AKHLAQUE, Asror Allayarov. Alisher Navoi's creative works: a scientific exploration	115

Fayzulla ISKANDAROV, Dostonjon Tojiev. “Alisher Navoi international award”: establishment and historical significance for the turkic world	118
Diyora ABDUJALILOVA. Alisher Navoiy va Yahyobey Toshlijali dostonlarida shayx va avliyolar timsoli	124
Orifjon OLIMJANOV. Alisher Navoiy va Lorendeli Hamdiy “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasiga doir	131
II SHO‘BA. NAVOIY NAZMIY, NASRIY VA ILMIY MEROSINI O‘RGANISH MASALALARI SECTION II. ISSUES OF STUDYING NAVAIY'S POETRY, PROSE AND SCIENTIFIC HERITAGE	
Nurboy JABBOROV. Alisher Navoiy “Tarixi anbiyo va hukamo” asarining siyarnoma turkumida tutgan o‘rni	136
Nusratullo JUMAXO‘JA. Navoiyning yigitlik lirikasiga mansub mustazodi	149
Maqsud ASADOV. Alisher Navoiy “Tanbeh”larining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari (“Mahbub ul-qulub” asari misolida)	155
Dr. Kemal Yavuz ATAMAN. Ali Şir Nevaî beyitlerinde kulluk şuuru	160
Zuhridin ISOMIDDINOV. Navoiyning “qaychi” g‘azali	165
Baxtiyor FAYZULLOYEV. Qo‘qon adabiy muhitida Navoiyga izdoshlik	170
Iqboloy ADIZOVA. Adabiy ta’sir va poetik tafakkurning yangilanishi	177
Nafas SHODMONOV, G‘iyosiddin SHODMONOV. Olti dostonida Odam Ato timsoli talqini	185
Faridaxon KARIMOVA. Xorazm adabiy muhitida debochanavislik an’analari	193
Islomjon YAQUBOV. O‘zaro ta’sir, ijodiy mushtaraklik va o‘ziga xoslik	200
Shavkat HAYITOV, Gulshod SHOYIMOVA. Alisher Navoiyning nabotot va hayvonot olamiga munosabati	205
Obidjon KARIMOV. Alisher Navoiy irfoniy olamining yangicha talqini	212
Gulbahor ASHUROVA. O‘zbek ayol shoiralari ijodida Alisher Navoiy obrazi tasvirlari	216
Qo‘ldosh PARDAYEV. Navoiy g‘azallariga Muqimiyning nazira va taxmislari	221
Ilyos ISMOILOV. Abror hayrati	226
Shermuhammad AMONOV, Abdulhaq RAHIMI. Alisher Navoiy mustazodiga bog‘langan muxammas haqida	229
Zilola AMONOVA, Shahlola SAFAROVA. “Farhod va Shirin” dostonidagi na’t boblarning manbalari va badiiyati	235
Abdulhamid QURBONOV. Badiiy matn va tasviriy vositalar mutanosibligi	242
Muqaddas TOJIBOYEVA. Abdulla Qodiriy romanlarida Alisher Navoiyga izdoshlik masalalari xususida	248
Orzigul HAMROYEVA. Radifning bayt kompozitsiyasidagi o‘rni	252

Ma'rifat RAJABOVA. Xalq maydon kulgi san'ati belgilarining Navoiy ijodidagi ko'rinishlari	256
Nodira SOATOVA. "Farhod va Shirin" dostoni – an'ana takomili, taraqqiysi hamda sintezi sifatida	260
Umida RASULOVA. "Alisher Navoiy" romanida obraz poetikasi	266
Marg'uba ABDULLAYEVA. Yetti sayyora: badiiy talqin va ilmiy dunyoqarash	269
Sohiba UMAROVA. Suyuma G'aniyeva – navoiyshunos	273
Zuhra MAMADALIYEVA. Alisher Navoiy "Xamsa"sida mirrix obrazining majozilik xususiyatlari	277
Aziz RAJABIY. Alisher Navoiy g'azallarining ohang jilolari (Yunus Rajabiy musiqiy merosi misolida)	282
Zarif QUVONOV. "Hayrat ul-abror"ning yangi tadqiqatlari xususida	286
Farruxbek ABDALIYEV, Gulnoza OSMANOVA. "Xamsa"da "kampir" obrazi talqini	290
Nafisa RAXMANOVA. Ramziy-majoziy obrazlar ta'vili haqida mulohazalar	293
Kamola ULUG'MURODOVA. Navoiy nazmida Layli obrazining badiiy talqini	299
Mavluda ORTIQOVA. Alisher Navoiyning "Nasoyim ul-muhabbat" asarida valiylarga xos sifatlar talqini	303
Jamila EISAR. Alisher Navoiyning she'riyatida oyina timsolining talqini ("G'aroyib us-sig'ar misolida")	308
Azizbek TOSHPO'LATOV. Alisher Navoiyga izdoshlik: Ahmad Tabibiy taxmislari	313
Sevara PARMONOVA. Tasavvufiy tazkiralari va Alisher Navoiy asarlarida Ibrohim Adham nomining zikr etilishi	318
III SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING MANBALARI VA MATNIY TADQIQI SECTION III. SOURCES AND TEXTUAL RESEARCH OF ALISHER NAVAI'S WORKS	
Dilnavoz YUSUPOVA, Umedullo MAHMUDOV. Alisher Navoiyning "Munshaoti Abdulloh Marvorid"dan o'rin olgan forsiy maktublari xususida	323
Manzar ABDULXAYROV. Alisher Navoiyning "Farhod va Shirin" dostoni tabdillari tahlili	330
Dr. Farhad RAHIMI. Senglah Sözlüğünün Feraği Düzeltmeleri ve Feraği'den Yanlış ktarmaları Üzerine	335
Gholamreza RAZMI. Özbekistan'da yayimlanmış iki Hayretü'l-ebrar'in tashih edilmiş metnindeki hatalarin sebeplerine bir bakiş	352
Altay NOORULLAH. Navoiy asarlarida tinish belgilarining yanglish ishlatilishi	365

Sevda BEHESHTI. Navai's Poetry as Reflected in Miniature Paintings (A study of Illustrated manuscripts preserved in Iranian collections)	376
Oysara MADALIYEVA. Alisher Navoiyning dastlabki ikki devoni Hamid Sulaymon nigohida	384
Dr. Siyamek HÜSSEYINALIZADE (Ergin Avşar). Amîr Alî Şîr Nevaî'nin şiirlerinde Şamanlığa aid Terimler ve ritüeller	395
Ozoda TOJIBOYEVA. Parij kulliyotidagi "Favoyid ul-kibar"ning matniy xususiyatlari	407
Husnigul JO'RAYEVA. Husayn Boyqaro – Husayniy adabiy merosining O'zbekistonda o'rganilishi	412
Dilnoza RUSTAMOVA. Alisher Navoiy toshbosma devonlaridagi ayrim g'azallar matnining qo'lyozma nusxalar bilan qiyosi	417
Erfan ESHGHÎNOUR. Fâni Divanındaki Avnî Divanından Tercüme Olunmuş Şiirler Üzerine	423
Lochinbek AHMADALIYEV. Po'latjon Qayyumiy tazkiralarda Alisher Navoiy faoliyatining yoritilishi	433
Dilnavoz SATTOROVA. Navoiy g'azallariga Sa'diy taxmislari	438
IV SHO'BA. ALISHER NAVOIY ASARLARINING XORIJIY TILLARGA TARJIMASI VA CHET ELLARDA O'RGANILISHI SECTION IV. TRANSLATION OF ALISHER NAVA'I'S WORKS INTO FOREIGN LANGUAGES AND STUDY ABROAD	
Hulkar HAMROYEVA, Shahlo NARALIYEVA, Ozodaxon MUSAYEVA. Qozog'istonda Mir Alisher Navoiy ijodining o'rganilishi	444
Abdulhay SOBIROV, Zamira DJURABAYEVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" – turkiy xalqlar leksikasining so'nmas bulog'i	451
Münevver TEKCAN, Serpil Yazıcı ŞAHİN. Muhakamat al-lughatayn's literary and academic aspects.	455
Бермет ЗАКИРОВА, Дамилова НУРИЙЛА. Алишер Навоинин чыгармаларындагы тилдик каражаттар аркылуу студенттин кеп маданиятын өстүрүү	462
Nishonboy XUSANOV. "Hayrat ul-abror"dagi teonimlarning semantik va badiiy xususiyatlari	468
Mardon RAHMATOV. Qo'shma fe'l komponentlari inversiyasi	472
Rashid ZOHID. Hayot – firoq manzili	478
Shahlo HOJIYEVA. Alisher Navoiy badiiy kashfiyotlari – Cho'lpon estetik tafakkuri yangilanishi omili	482
Mo'minjon SULAYMONOV. Alisher Navoiy davrida isiriq solinganmi?	488
Abdumurod TILAVOV. Alisher Navoiy ma'naviy merosi va zamonaviy ta'lim	492
Nilufar RASULOVA. Alisher Navoiyning boqiy merosi jahon tillarida	497
Ozodaxon MUSAYEVA, Gulchehra SULTONOVA. "Muhokamat ul- lug'atayn" asaridagi turkiy fe'llar va omonim so'zlar tahlili	502

Iroda ISHONXANOVA. Alisher Navoiy hayoti va ijodining “Литература” darsliklarida aks etishi	505
Shahlo NARALIYEVA, Farrux ABDALIYEV. Hazrat Navoiy ijodida nutq madaniyati	514
АШИРОВА Т.К., КАРАЕВА Н.О., ЗАКИРОВА Б.А. Алишер Навоинин чыгармаларын санарип платформалар аркылуу жайылтуу	518
Dilorom YULDASHEVA, Shahlo NARALIYEVA. Alisher Navoiyning didaktik qarashlari	523
Komiljon ABDULLAYEV. Ta’lim tizimi bosqichlarida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o’rgatishda fanlararo integratsiyadan foydalanish	527
Gulnoza YULDASHEVA, Sevinch UBAYDULLAYEVA. “Lison ut-tayr” dostonining ayrim morfemik xususiyatlari tahlili	531
Feruza DJUMANIYAZOVA. Alisher Navoiy ijodida milliy etnosport o’yinlari	534
Hamida JURAQOBILOVA. O’zbek she’riy matnlaridagi kognitiv metaforalarning fransuz tilida ifodalanishi	539
Abdug’ani NASRIDDINOV. Navoiyshunoslikda yangicha yondashuv	544
TEZISLAR ADABIYOTSHUNOSLIK	
AHMADOVA Shohsanam. Hofiz Xorazmiy va Alisher Navoiy ijodida zohid obrazi tasviri	550
ABDURAIMOVA Xafiza. Alisher Navoiy g’azaliyotida Doro obrazi talqinlari	553
ALIYEVA Sevinch. Anbiyolar haqidagi manbalarda Iso payg’ambar obrazi tasviri	556
ALMARDONOVA Aziza. Alisher Navoiy tarji’bandlarida dunyo ramzi	561
DEHQONOV Akramjon. Bir g’azal sharhi	564
DOLIMOV Shokir. «Hayrat ul-abror» dostoni sharhining rus tiliga tarjimasi xususida	567
GAFUROVA Shaxnoza. Navoiy me’rojnoma baytlarida qo’llangan badiiy san’atlar	569
IBOTOVA Madina. Alisher Navoiy g’azallarida jon va ishq munosabatining badiiy ifodasi	572
MEYLIYEV Xudoyberdi. Navoiy va zamondoshlari asarlarida Mirzo Mironshoh saroyi adabiy muhiti va shoir Lutfulloh Nishopuriy ijodiy faoliyatining yoritilishi	576
MUQUMOVA Surayyo. “Nasoyim ul-muhabbat”: ism, xosiyat va xususiyat	579
NASRULLAYEV Elmurod, SIROJIDDINOVA Sevinch. Xalq og’zaki ijodida Navoiy timsoli talqini	581

NURULLAYEVA Hulkaroy, MAMADALIYEVA Madina. Alisher Navoiyning “Mahbub ul-qulub” asarini o’qitish bo’yicha ayrim mulohazalar	584
OLIMJONOV Davronbek. “Boburnoma” asarida tarixiy shaxslar tavsifi (Alisher Navoiy shaxsi misolida)	587
PARDAYEVA Nigora, PIRNAZAROVA Barno. Navoiy lirikasida kichik lirik janrlar	589
SHOMURODOV San’at. Alisher Navoiy va Husayn Boyqaro munosabatlari isajon sulton talqinida	593
TO’XTAMURATOV Furqat. Alisher Navoiy g’azaliga Muhsiniy tatabbu’si	596
TURDIYEVA Maftuna. “Layli va Majnun” dostonlari kompozitsiyasidagi ba’zi farqli jihatlar	599
UMAROVA Dildor. Alisher Navoiy asarlarida sukut go’zalligi ifodasi	602
UMAROV Sardorbek. Ma’rifatning haqiqati – hayratdir	604
YANGIBOYEV Shavkat. Ito haqida	607
TILSHUNOSLIK	
YULDASHEVA Dilorom. Alisher Navoiy asarlarida rang-tus ifodalovchi birliklar	611
AXMADJANOVA Malika. Alisher Navoiy va o’zbek tilining boyitilishi: ilmiy metodlar va uslublar	613
AKBAROVA Zulfizargul. Alisher Navoiy asarlarida qo’llanilgan antonimlik hosil qiluvchi “Ahl” komponentli lug’aviy birliklar tahlili	617
YUSUPOVA Dildora. Alisher Navoiy asarlarida qimmatbaho tosh nomlari	619
MUNDARIJA	622